

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'SPIRIN YOSHDAGI QIZLAR MUTAASSIBLASHUVI: GENDER YONDASHUV VA PSIXOLOGIK TAHLIL

Sobirova Sojidxon Akramjon qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, tayanch doktorant.

e-mail: sojidxonsobirova@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4782-5538>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada o'spirin yoshdagi qizlar o'rtasida mutaassiblik shakllanishi sotsio-psixologik yondashuv va gender tahlil doirasida yoritilgan. Mutaassiblik g'oyalarining o'spirin qizlar emotsional sohasiga, shaxsiy identifikatsiya inqiroziga hamda deviant xulq-atvor omillariga ta'siri tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda qizlar mutaassibligining psixologik mexanizmlari va ularni erta aniqlash hamda profilaktika qilish asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: mutaassiblik, o'spirinlik davri, emotsional beqarorlik, shaxsiy identifikatsiya, sotsio-psixologik yondashuv, gender tahlil.

РАДИКАЛИЗАЦИЯ ДЕВУШЕК ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА: ГЕНДЕРНЫЙ ПОДХОД И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Собирова Сожидахон Акрамжон кизи

Международная исламская академия Узбекистана, базовый докторант.

Аннотация.

В данной статье процесс формирования религиозного радикализма среди девушек подросткового возраста рассматривается в рамках социально-психологического и гендерного подходов. Проведен системный анализ влияния радикальных идей на эмоциональную сферу девушек-подростков, кризис личностной идентичности и факторы девиантного поведения. Особое внимание уделено психологическим механизмам формирования радикализации у девушек, а также научному обоснованию подходов к ее раннему выявлению и профилактике. Результаты исследования могут быть использованы при разработке программ психологической профилактики, направленных на укрепление идеологической устойчивости молодежи.

Ключевые слова: радикализация, подростковый возраст, эмоциональная нестабильность, личностная идентичность, социально-психологический подход, гендерный анализ.

RADICALIZATION OF ADOLESCENT GIRLS: A GENDER APPROACH AND PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Sobirova Sojidxon Akramjon qizi

International Islamic Academy of Uzbekistan, Basic Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the formation of radicalization among adolescent girls through the perspectives of socio-psychological and gender-based approaches. It provides a systematic analysis of the influence of radical ideologies on the emotional development of adolescent girls, identity crisis, and factors associated with deviant behavior. Particular attention is paid to the psychological mechanisms underlying the development of radicalization among adolescent girls, as well as to the theoretical foundations for its early identification and prevention. The findings of the study may contribute to the development of psychological prevention strategies aimed at strengthening adolescents' resilience to radical ideologies.

Keywords: radicalization, adolescence, emotional instability, personal identity, socio-psychological approach, gender analysis.

Kirish. Raqamli dunyoda mafkuraviy tahdidlar va radikal g'oyalarning yoyilishi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda yangi muammolarni kun tartibiga olib chiqmoqda. Ayniqsa, o'spirinlik davri — shaxsning ruhiy, emotsional va ijtimoiy shakllanishidagi eng inqirozli bosqichlardan biri bo'lib, bu davrda yoshlarning turli **destruktiv** va mutaassib g'oyalar ta'siriga tushib qolish xavfi yuqori bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, mutaassiblik jarayonida gender omilining, xususan, o'spirin qizlar psixologik xususiyatlarining o'rnini tadqiq etish alohida ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Oxirgi ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'spirinlik davri shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar, ijtimoiy pozitsiyasi va shaxsiy identifikatsiyasi faol shakllanadigan murakkab rivojlanish bosqichidir. Mazkur davrda emotsional beqarorlik,

mustaqillikka intilish, tengdoshlar ta'sirining kuchayishi hamda o'zini anglash jarayonlarining jadallashuvi ayrim hollarda yoshlarning mutaassib yoki ekstremistik g'oyalari **ta'siriga** berilishini osonlashtiruvchi psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ayniqsa, o'spirin qizlarning emotsional sezgirliigi, ijtimoiy munosabatlarni qabul qilish xususiyatlari, oilaviy va madaniy muhit ta'siri, shuningdek, ularning psixologik himoya mexanizmlari radikal g'oyalarga munosabat shakllanishida muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu omillarni ilmiy asosda tahlil qilish nafaqat mutaassiblikning psixologik mexanizmlarini chuqurroq anglash, balki profilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda ham muhim nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar o'spirinlik davrini shaxsning o'zini anglash, identifikatsiya va qadriyatlar tizimi shakllanadigan muhim bosqich sifatida tavsiflaydilar. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, aynan ushbu davrda shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanadi va mazkur jarayondagi ziddiyatlar ayrim hollarda yoshlarning turli ekstremistik yoki mutaassib g'oyalarga qiziqishiga zamin yaratishi mumkin [1; B. 336]. A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa shaxs xulq-atvorining kuzatish, taqlid va ijtimoiy ta'sir orqali shakllanishini asoslaydi [2; B. 247]. Bu esa internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan destruktiv kontentning yoshlar ongiga ta'sir mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. J. Piaje kognitiv rivojlanish nazariyalarida o'spirinlarda abstrakt fikrlash rivojlanishi bilan bir qatorda tanqidiy tafakkurning yetarli shakllanmaganligi ayrim vaziyatlarda noto'g'ri mafkuraviy qarashlarni qabul qilish ehtimolini oshirishi qayd etiladi [3; B. 356]. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda esa yoshlar radikallashuvi va mutaassiblashuvi muammosiga yondashuvlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Emmelkamp, Asscher, Wissink va Stams (2020) 30 ta empirik tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilda voyaga yetmaganlar radikallashuviga ta'sir qiluvchi 17 ta xavf omilini aniqladilar. Ularning natijalariga ko'ra, salbiy xulq-atvorli tengdoshlar ta'siri, tajovuzkorlik, diskriminatsiyani idrok etish, **past ta'lim darajasi** hamda oilaviy muammolar mutaassiblik bilan o'zaro bog'liqdir [4; B. 101489]. G. Patton ilk o'smirlik davridagi gender me'yorlari va ijtimoiy tengsizlik ta'siriga bag'ishlangan tadqiqoti qizlar va o'g'il bolalar ijtimoiylashuvdagi tub tafovutlarni ochib beradi [5; B. 225]. Mualliflarning asoslashicha, aynan ushbu davrda shakllanadigan gender stereotiplari o'spirinlarning ruhiy farovonligi, emotsional regulyatsiyasi va qaror qabul qilish mexanizmlariga bevosita yo'naltiruvchi **ta'sir** ko'rsatadi. Ushbu qonuniyat o'spirin qizlar o'rtasida mutaassiblik hamda genderlashtirilgan radikallashuvning shakllanish dinamikasini tushunishda bir qator psixologik aspektlarni namoyon etadi:

1. Ijtimoiylashuvdagi disproportsiya va "Dofaminergik tuzoq": O'g'il bolalardan farqli ravishda, o'spirin qizlarning ijtimoiylashuv jarayoni ko'proq tashqi sotsial nazorat, gender roli bosimi va emotsional cheklovlar bilan kechadi. Patton va hammualliflar ko'rsatib o'tgan ijtimoiy tengsizlik va stereotiplar qizlarda shaxsiy avtonomiya inqirozi va **"qaramlik" hissiyotini** kuchaytiradi. Radikal va mutaassib guruhlar esa ushbu inqirozli holatdan unumli foydalanib, qizlarga soxta subyektlilik, muhim ijtimoiy missiya va psixologik himoyalanganlik illyuziyasini taklif etadi.

2. Qaror qabul qilish va emotsional beqarorlik: Gender me'yorlarining institutsional bosimi o'spirin qizlarda o'zini o'zi baholashning pasayishiga hamda emotsional beqarorlikka olib keladi. G. Patton tadqiqotiga tayanadigan bo'lsak, kognitiv va emotsional sohadagi ushbu zaiflik qizlarning murakkab hayotiy vaziyatlarda tanqidiy fikrlashdan ko'ra, tayyor, rigid (qotib qolgan) va dogmatik mafkuraviy qoliplarga tezroq og'ishiga zamin yaratadi.

3. Genderlashtirilgan radikallashuvning psixodinamikasi: O'g'il bolalarda radikallashuv ko'pincha tashqi tajovuzkorlik va guruhda yetakchilik qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, qizlarda bu jarayon Patton va hammualliflar ta'kidlagan emotsional bog'liqlik, guruhga tegishlilik va ma'naviy ustunlikni his qilish istagi orqali kechadi.

Duindam, van Loon va Losel tomonidan o'tkazilgan ko'p darajali meta-tahlilda yoshlar o'rtasida ekstremizm va mutaassiblikni oldini oluvchi himoya omillari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktabdagi yuqori o'quv natijalari, prosotsial xulq-atvor, ota-onalarning ijobiy ishtiroki, ijobiy guruhlararo muloqot, ijtimoiy adolatni idrok etish o'spirin yoshdagi qizlarni ekstremistik va zo'ravon radikal g'oyalardan himoya qiluvchi statistik jihatdan ahamiyatli omillar sifatida aniqlangan. Mualliflar ushbu himoya omillarini profilaktik dasturlar va xavfni baholash tizimlariga integratsiya qilish radikallashuvning oldini olish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, gender omilining himoya ta'siri ijtimoiylashuv jarayoni, prosotsial qadriyatlarining shakllanishi hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bilan bevosita bog'liq ekanligi qayd etilgan. Ushbu xulosalar o'spirin qizlarda mutaassiblikka moyillikni o'rganishda gender omilini alohida ijtimoiy-psixologik determinant sifatida ko'rib chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [6; -B. 102043].

Ahmed, Gallinat, Karow va Allrogen islomiy radikallashuv jarayonlariga oid ilmiy adabiyotlarni tizimli ravishda tahlil qilib, radikallashuvning xavf va himoya omillarini umumlashtirdilar. Mualliflarning xulosalariga ko'ra, shaxsiy identiklik inqirozi, ijtimoiy chetlanish, diskriminatsiya, psixologik zaiflik va onlayn ekstremistik kontent bilan muntazam muloqot mutaassiblik xavfini oshiruvchi omillar hisoblanadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, mustahkam oilaviy munosabatlar, ijobiy ijtimoiy integratsiya, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qiluvchi muhim omillar sifatida qayd etilgan [7; -B. 1285]. Ushbu natijalar o'spirin qizlarda mutaassiblikning oldini olishda psixologik va ijtimoiy profilaktikaning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Dunyo miqyosidagi so'nggi yigirma yillik ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'spirinlarda mutaassiblikka moyillik biologik, psixologik, oilaviy, gender va raqamli axborot muhiti omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab ijtimoiy-psixologik jarayondir. Mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, oilaviy muhit va ta'lim tizimining shaxs kamolotidagi ahamiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'spirin qizlarning mutaassiblikka moyilligi va ushbu jarayonda gender xususiyatlarining psixologik jihatlari yetarli darajada o'rganilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuningdek, mediasavodxonlikni rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish, ota-onalar va ta'lim muassasalarining hamkorligini kuchaytirish, ijobiy ijtimoiy muhit yaratish hamda psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini

takomillashtirish mutaassiblikning oldini olishda muhim himoya omillari ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, o'spirin qizlarda psixologik barqarorlikni, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini va mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan profilaktik dasturlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot o'spirin qizlarda mutaassiblik hodisasining shakllanishi va namoyon bo'lish xususiyatlarini gender hamda ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilish orqali muammoning nazariy asoslarini kengaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida mutaassiblikka moyillikning shaxsiy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi, shuningdek, oila muhiti, tengdoshlar ta'siri, ijtimoiy tarmoqlar, diniy-ma'rifiy bilimlar darajasi hamda gender stereotiplarining mazkur jarayondagi o'rni yoritiladi. Bunday yondashuv mutaassiblikni faqat individual psixologik holat sifatida emas, balki shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari o'spirin qizlarda mutaassib qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi xavf omillarini aniqlash, ularni erta bosqichda diagnostika qilish hamda individual va guruhviy profilaktika choralari ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasasi, mahalla va psixologik xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan profilaktik mexanizmlarni takomillashtirishda mazkur natijalardan foydalanish mumkin. Profilaktik tadbirlarni tashkil etishda o'spirin qizlarning yosh, gender, ijtimoiy muhit va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish ularning samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mutaassiblikka moyillikning psixologik indikatorlarini kuzatish, so'rovnoma, intervyu, psixodiagnostik testlar va eksperimental metodlar asosida aniqlash maqsadga muvofiq. Bunda tanqidiy fikrlash darajasi, ijtimoiy moslashuv, emotsional barqarorlik, suggestivlik, guruh bosimiga beriluvchanlik, intolerantlik va qat'iy stereotipik qarashlar kabi ko'rsatkichlarni kompleks baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mavjud diagnostik metodikalarni o'spirin qizlarning gender va yosh xususiyatlariga moslashtirish, ularning ishonchliligi hamda validligini empirik jihatdan tekshirish zarur.

Bundan tashqari, mutaassiblikning oldini olishga qaratilgan psixologik-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqish va ularning samaradorligini nazorat hamda tajriba guruhlarini ishtirokidagi eksperimental tadqiqotlar orqali baholash ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday dasturlarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, emotsional o'zini o'zi boshqarish, bag'rikenglik, konstruktiv muloqot va ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu yo'nalishdagi izlanishlar o'spirin qizlarda mutaassiblikka moyillikni barvaqt aniqlash, uning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda ilmiy asoslangan profilaktik faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton & Company, 1968. – 336 p.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 p.
3. Inhelder B., Piaget J. The Growth of Logical Thinking from Childhood to Adolescence: An Essay on the Construction of Formal Operational Structures. – New York: Basic Books, 1958. – 356 p.
4. Emmelkamp J., Asscher J. J., Wissink I. B., Stams G. J. J. M. Risk Factors for (Violent) Radicalization in Juveniles: A Multilevel Meta-Analysis // Aggression and Violent Behavior. – 2020. – Vol. 55. – Article 101489.
5. Patton G. C., et al. Gender Norms, Social Inequalities, and Mental Wellbeing in Early Adolescence: A Global Longitudinal Study // The Lancet Child & Adolescent Health. – 2024. – Vol. 8. – No. 3. – P. 215–227.
6. Duindam H. M., van Loon A. W. G., Lösel F. Protective Factors Against Extremism and Violent Radicalization in Youth: A Multilevel Meta-Analysis // Aggression and Violent Behavior. – 2025. – Vol. 80. – Article 102043.
7. Ahmed A., Gallinat J., Karow A., Allroggen U. Risk and Protective Factors of Islamic Radicalization: A Systematic Review // European Child & Adolescent Psychiatry. – 2024. – Vol. 33. – No. 5. – P. 1285–1304.